



XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko'chasi, 74-uy, +998 62 385 5336,
Xalq_deputatlari_Yangiariq_tumani_kengashi24@gmail.com

2026-yil 12-yanvar VII-21-1-12-179-K/26 Yangiariq tumani

Yangiariq tumanida 2026-yilga belgilangan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo'shma xatlari hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo'shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangiariq tumanida 2026-yil 1-yanvardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror "Yangiariq ovozi" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari S.Jabbarov va xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining mahalliy budjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi X.Ollaberganovlar zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



**ABDULLAYEV
BAXTIYOR
OLIMOVICH**

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-21-1-12-179-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar		Sanoat korxonalarini		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Yangiariq tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.0	1.0	1.2	1.2

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-21-1-12-179-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh- chig'anoq, ohaktosh (<i>sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari</i>), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan blokklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht- cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Yangiariq tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2